

MOSH NAVLARINING DUKKAK UZUNLIGIGA EKISH MUDDATLARINING TA'SIRINI O'RGANISH

Babadjanova Nadira Madiyarovna

*Urganch davlat universiteti O'simlikshunoslik
ixtisosligi II-bosqich tayanch doktoranti*


Annotatsiya: Dukkak uzunligi mosh ekinlarida hosildorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri, shuningdek ekish muddatlari xam o'simlikning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sir qiladi. Tajribada moshning Durdona va Radost navlari 3 takrorlanishda, 3 xil muddatda: Aprel oyining uchinchi dekadasi, May oyining birinchi va ikkinchi dakadalarida asosiy ekin sifatida ekilgan. Xar bir variantdan 10tadan dukkak uzunliklari o'lganib, o'rtacha ko'rsatkichlar solishtirilgan. Dastlabki natijalarga ko'ra Durdona navida Aprelni uchinchi dekadasiida ekilgan namunalarda dukkak uzunligi eng yuqori 9.92 sm bo'lgan, eng past ko'rsatkich 8.10sm Radost navida Mayning birinchi dekadasiida ekilganda kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Durdona, Radost, ekish muddatlari, dukkak, hosil, asosiy ekin

Kirish: Ekish muddati o'simlikning o'sishi va rivojlanishiga va hosilga ta'sir qiluvchi muhim agronomik omil hisoblanadi. Shunga mos ravishda nav xam hosildorlikda sezilarli ta'sir qiladi (Maqsood Ahmad va boshqalar)[6]. Dukkak uzunligi mosh ekinlarida hosildorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, turli ishlov berish usullarining samaradorligini baholash uchun o'lganadi. Health Sciences ma'lumotlariga ko'ra, alohida dukkaklarning uzunligini o'lgash jarayonlari umumiy hosildorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga yordam beradi. Dukkak uzunligini baholash orqali tadqiqotchilar turli aralashuvlarning ekin mahsuldorligiga ta'sirini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Ushbu o'lgahov qishloq xo'jaligi amaliyotlarini optimallashtirish va mosh hosildorligini maksimal darajada oshirish uchun muhim ma'lumotlar beradi (<https://www.wisdomlib.org/concept/pod-length>) [4]. Dukkakli ekinlar odamlar uchun oziq ovqat , chorva mollari uchun foydali oziqa shuningdek tuproq unumdorligini oshirishi bilan foydali va muhim ekin hisoblanadi (Baddeley va boshqalar)[1]. Mosh (Vigna radiate) kabi dukkakli ekinlar ekish bilan tuproq unumdorligini tiklash va yerlarning degradatsiyasining oldini olish, shuningdek ekotizimni saqlab qolish bilan birga ekinlar ishlab chiqarish va chorvachilikni yaxshilash mumkin (Chatta va boshqalar)[2]. Bunday ikki maqsadli dukkakli ekinlarni yetishtirish qishloq xo'jaligi tizimining umumiy mahsuldorligini oshiradi va tejaydi, tabiiy resurslardan foydalanish va qishloq xo'jaligi tizimidan ko'proq mahsulot olishga yordam beradi. (Kassie, 2011)(5). Mosh dunyoda keng tarqalgan ekin bo'lib oqsilga boy hisoblanadi. Mosh donida 24,8% oqsil, 1% moy, 3,5-4,5% kletchatka, 4,5-5,5%

kul va 62 -65% uglevodlar, 1,5% moy kislotalari, A, B1,B2, B3, B6, B9, C, E, , natriy, fosfor, kaliy, magniy, temir, mis, ruh mineral moddalari va antioksidantlar mavjud (Mavliyanova va boshqalar)[7].

Tadqiqot uslubi: Dala tajribasi Paxta seleksiyasi urug'chiligi va paxta etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Xorazm filiali tajriba stansiyasi dala maydonlarida o'tkazildi. Tajriba uch takrorlanishda, rendomizatsiya usulida, ikki nav bo'yicha (Durdona va Radost), uch xil muddatda ekilib, kuzatuv ishlari olib borildi. Qator oralari 60 sm, o'simlik oraliqlari 15 sm bo'lib, osimlikning o'sishi, dukkaklar xosil qilishi, uzunligi, don soni kabi parametrlar kuzatib borildi. Dala tajribasi uslublari O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot institutining "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari"qo'llanmasiga muvofiq o'tkazildi. Mosh navlari pishib yetilgandan keyin hosildorlikni aniqlash uchun xar bir variantdan belgilangan joylardan o'simlik namunalari olindi va dukkak uzunliklari lineyka yordamida o'lchandi. Dastlabki tahlillarga ko'ra ekish muddatlari mosh navlarining dukkak uzunligiga ta'siri ko'rsatgani aniqlandi (rasm).



Rasm 1 Turli ekish muddatlarini dukkak uzunligiga ta'siri

Natijalar va muhokama: Tajriba natijalariga ko'ra eng yuqori dukkak uzunligi Aprelning oxirgi dekadasida ekilgan Durdona navida 9.92 sm, eng kichik ko'rsatkich mayning birinchi dekadasida ekilgan Radost navida 8.10 sm kuzatildi. May oyining

birinchi va ikkinchi dekadasiida ekilgandagi ko'rsatkichlar bir- biriga yaqin bo'lganligi aniqlandi (9.56sm va 9.49sm). Radost navida esa eng yuqori ko'rsatkich Mayning ikkinchi dekadasiida ekilgan namunalarda qayd etildi (9.26sm). Aprelni oxirgi dekadasi va mayning birinchi dekadasiida ekilgan namunalarda dukkak uzunligi ko'rsatkichlari bir biriga o'xshashligi aniqlandi (8.16sm va 8.10sm). Bu navlarning genetik xususiyatlari, agronomik omillar va iqlim bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Dukkak uzunligiga ekish muddatlarini ta'siri Radost navida yaqqol ko'rindi. Bunda ekish muddati o'zgarishi bilan dukkak uzunligi ortib borgan. Durdona navida esa ekish muddatlari dukkak uzunligiga keskin ta'sir qilmagan. Dastlabki tahlillar asosida Radost navi ekish muddatlariga tasirchanligi yuqori ekanligini xulosa qilish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Baddeley, J.A., Jones, S., Topp, C.F.E., Watson, C.A., Helming, J., and Stoddard, F.L., 2013. Biological nitrogen fixation (BNF) in Europe. *Legume Future Report*, 1: 5-11.
2. Chattha, M.U., Hassan, M.U., Khan, I., Chattha, M.B., Ashraf, I., Ishque, W., Farooq, M.U., Usman, M. and Kharal, M., 2017a. Effect of different nitrogen and phosphorus fertilizer levels in combination with nitrogen and phosphorus solubilizing inoculants on the growth and yield of mung bean. *Pakistan Journal of Life and Social Sciences*, 15(1): 31-36.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari.2007. UZPITI.
4. <https://www.wisdomlib.org/concept/pod-length>
5. Kassie, M., 2011. Economic and environmental benefits of forage legume-cereal intercropping in the mixed farming system: A case study in west Gojam, Ethiopia. Addis Ababa, Ethiopia: EDRI.
6. Maqsood Ahmad, Muhammad Umer Chattha, Imran Khan, Muhammad Bilal Chattha, Faqir Hussain Anjum, Sadia Afzal, Muhammad Faran, Fiaz Hussain, Muhammad Talha Aslam, Abdul Jabbar, Muhammad Sultan Ali Bazmi, Mahnoor Mehmood and Muhammad Umair Hassan., 2021. Effect of Different Sowing Dates and Cultivars on Growth and Productivity of Mungbean Crop. *Journal of Innovative Sciences*,1:190-198.
7. Mavliyanova R.F., Sulaymonova B.A., Boltaev B.S., Mansurov X.G., Kenjaboev Sh.M. Mosh yetishtirish texnologiyasi. Tavsiyanoma. –“Navro'z” nashriyoti. Toshkent, O'zbekiston, 2018.